

Pedagogikadagi muammolar va ularning yechimlari

**Guliston Davlat Pedagogika Instituti
Pedagogika fakuliteti pedagogika yo‘nalishi
1-kurs talabasi
Pirnayeva Umida Xoldor qizi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogikadagi muammolar va ularning yechimlari , pedagoglar faoliyatida muammolar yechimlarini amaliy qo‘llash usullari haqida .

Kalit so‘zlar: pedagogika, pedagog, ma’naviyat, ta’lim, metod, texnologiyalar, mafkura.

Kirish

Ajdodlarimiz ma’rifat, ma’naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o’rgatish ularni komillikka yetaklash yo‘llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. Bu esa pedagogika fanining maydonga kelishiga sabab bo‘lgan. Chunki, insonning ma’rifatli bo‘lishi va ma’naviy komillikka erishishi pedagogika fanining yetakchiligidagi amalga oshiriladi. Ma’lumki, mamlakatimiz taraqqiyoti va kelajagi ta’lim-tarbiya sohasidagi sifat o‘zgarishlari qilib yuqori samaradorlikka erishishga, ularning jahon ta’limi talablari bilan mosligi va amaliy hayotdagi o‘rnini qay darajada topayotganligiga bog‘liq. Ta’lim-tarbiyadagi sifat o‘zgarishlar va yuqori samaradorlik ko‘proq milliy pedagogikamizning tarixiy ildizlari va zamonaviy yutuqlarini talabalar ongiga singdirishni qay darajada olib borilganligiga bog‘liq bo‘lib, u barkamol avlod tarbiyasida mustahkam asos bo‘ladi. Shunday asoslarda ta’lim-tarbiya berish bo‘lajak mutaxassislarini yangicha sharoitlarda ishlashga tayyorlovchi innovatsion jarayon bo‘lib, oldingi egallagan bilimlar asosida ijobiy pedagogik samaralarni beruvchi yangicha yondashuv texnologiyalarini yaratish va joriy etishdan iboratdir. Bu talablarni bajarish ta’lim-tarbiya jarayonini ilm-fan va texnika-texnologiyalaming eng so‘nggi yutuqlari asosida, zamon talablarini hisobga olgan holda tashkil etish muammosi mavjudligini ta’kidlaydi.

Pedagogika fani ijtimoiy fanlar tizimiga kirib, u o‘zining nazariy, milliy va amaliy asoslariga ega. Pedagogika fanining nazariy asoslari: pedagogika fanining nazariy

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

asoslari inson aqliy kamolotini yuksaltirishga qaratilgan, xalqimiz tomonidan yaratilgan boy tajriba, ilmiy-tadqiqotlarga doir nazariy va metodik manbalarga, o‘rta Osiyo va jahon ma’rifatparvar, mutaffakkir olimlarning asarlariga suyangan holda barkamol shaxsni tarbiyalash, o‘qitishning qoida va umumiy qonuniyatlariga asoslanadi. Pedagogika fanining milliy asoslari: pedagogika fanining milliy asosi ta’lim muassasalarini har bir millatning milliy merosi bilan umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlarni bog‘lagan holda amalga oshiradi. Pedagogika tajribalarni umumlashtirish, uning yutuqlarini amaliyotga qo‘llash, pedagogika fanining va maktabdagi o‘quv tarbiyaviy jarayonlar samaradorligiga ta’sir qiladi. Hozirgi kunda pedagogika fani faqat yosh avlodni shakllantirish uchungina muhim bo‘lib qolmay, balki uning roli jamiyatning hamma sohalarida muhim bo‘lmoqda. Hozirgi davrda ishlab chiqarishda yoki xalq xo‘jaligining biror bir sohasida kompleks tarbiyaviy tadbirlarni qo‘llamasdan turib biror bir natijaga erishish mumkin emas. Jamiyatda juda ko‘p umumiy, iqtisodiy va tashkiliy muammolar bir vaqtda u yoki bu jihatdan tarbiyaviy muammolar ham bo‘lib qolmoqda. Hozirgi davrda pedagogikaning metodologik muammolari ayniksa o‘tkir tus oladi. O‘zbekiston Respublikasining istiqloli munosabati bilan istiqlol mafkurasi shakllandı. Xalq ta’limi tizimi yaslidan boshlab, oliy o‘quv -tarbiya muasasalari boshqarmalarini rivojlantirish sohasida kompleks tadbirlar ishlab chiqishni, o‘quv tarbiya ishlari darajasi hozirgi davr talabi asosida yaxshilashni, ta’lim metodlarini takomillashtirishni, pedagogik kadrlar malakasini oshirishni va ularni tayyorlashni davr talabi asosida yaxshilashni talab etadi. Bu masalalarni muvaffaqiyatli hal etishi, ko‘p tomonlama o‘qituvchilarning pedagogika fani arboblari va xalq ta’limi organlarining umummetodologik tayyorgarligiga bog‘liq. Hozirgi taraqqiyot tarbiyaning muhim masalalarini birinchi planga qo‘ymoqda, mafkuraviy ishlarni kuchaytirish, ta’limning mazmunini milliylashtirish, uni takomillashtirish, ta’limning tashkiliy shakl va metodlarini takomillashtirish, nazariy va amaliy masalalarini hal qilishga yangicha yondashish, metologik muammolar ustidako‘proq fikr yuritishni talab qilmoqda. Umumiy ma'lumot muammosi hozirgi davrdagi eng muhim muammolaridan biridir, bu uning hozirgi davr talabiga javob berishi milliyligi, umuminsoniy sifatlarni shakllantirishga xizmat qilish, o‘quv materiallarini tashkil qilish va tanlash prinsplariga mos bo‘lishi kabilardir. Bular ilmiy bilimlarning ko‘payib borayotgan hajmi bilan mакtabda ularga o‘rganish sharoitlari o‘rtasidagi ziddiyatni yo‘qotishga yordam beradi.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

A.M.Novikovning ta’kidlashicha, pedagogiktadqiqot muammosi mantiqan o‘rnatilgan qarama-qarshilikdan sizib chiqadi: faqat fanga oid, ilmiy bilimning yassiligiga olib o ‘tilgan, fan tilida ifodalangan jihatlardangina ajratib oiniadi. Qarama-qarshilik yechimining dastlabki sharti-vositasi ishlab chiqilganda, variant mavjud bo‘ladi. Ilmiy ish bilan amaliy masalani ajratib olish muhim. Amaliy masaladan ilmiy muammoga o‘tish uchun, ikki tartibni amalga oshirish kerak: berilgan amaliy masalani echish uchun qaysi ilmiy bilimlar kerakligini aniqlash; ushbu bilimlar fanda borligini aniqlash; agar bilimlar bor bo‘lib, ularni tanlab olish, tizimlashtirish, foydalanish zarur bo‘lsa, u holda ilmiy muammoning o‘zi mavjud emas; agar kerakli bilimlar yo‘q bo‘lsa yoki to‘liq boim asa, muammo yoki muammolar majmui yuzaga keladi.

Xodjayev o‘zining "Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi" darsligida shunday deydi: "Ta’lim-tarbiya jarayonining tarixiylik, milliylik va umuminsoniylik qonuniyati pedagogik ilmiy tadqiqotlaming metodologik asosi, yo‘riqnomasidir. Faqatgina pedagogik merosni, ta’lim-tarbiya taraqqiyoti tarixini o‘rganish emas, pedagogik ilmiy tadqiqotning barcha yo‘nalishlari tarixiylik, milliylik va umuminsoniylik qonuniyatiga asoslanadi. Har bir masalaning rivojlanish bosqichlari bo‘yicha ilmiy, ommabop adabiyotlami o‘rganmasdan tadqiqotni amalga oshirib bo‘maydi.

Muhokama

Ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiya ishlari jarayonini o‘rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holat aniqlanadi, tajriba avvalli va yakunida qo‘lga kiritilgan ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farq to‘g‘risidagi ma’lumotga ega bo‘linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzliksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qoidaga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta’lim-tarbiya sifatini oshirish, o‘quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanadaoshadi. Ammo, har bir bolaning o‘z iqtidori, dunyoqarashi, qiziqishi mavjud. Pedagogik tajriba (eksperiment - lotincha «sinab ko‘rish», «tajriba qilib ko‘rish») metodi. Pedagogik tariba metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini o‘rganish, mavjud pedagogik sharoitlaming maqsadga erishishning kafolatlay olishi, ilgarí surilayotgan tavsiyalarning amaliyot-da o‘z in’ikosiga ega bo‘la olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydal añilad i. Muayyan muammo echimini topishga yo‘naltirilgan pedagogik tajriba ma’lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 2. February 2024

ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur metoddan foydalanish tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodikaning samaradorligini aniqlay hamda unga baho bera olishi zarur

Natija

O‘quvchilarda tarixiy tafakkuming rivojlanganlik holatini aniqlash quyidagi darajalar asosida tahlil etildi: yuqori - o‘quvchi tarixiy voqeа sodir bo‘lgan vaqt, voqelikni sodir bo‘ush vaqt bilan bogiiqlikda uni ketma-ketligi va davomiyligi haqida aniq tushunchaga ega; Vatanimiz jahonda yuz bergen voqealarni vaqt nuqtai nazaridan taqqoslary oladi; tarixiy voqeа sodir boigan joyning nomi, voqeani mazkur hududda sodir bo‘lishi sabablarini tushuntirib bera oladi; voqeaning Vatanimiz tarixi bilan aloqadorligini baholay oladi; voqeaning sodir bo‘lish sabablari, voqeada ishtirok etgan shaxslar haqida toiiq ma’lumotga ega; voqeaningmahamiyatini toiiq baholay oladi; o‘rta - o‘quvchi tarixiy voqeа sodir bolgan vaqt, voqelikni sodir boiish vaqt bilan bog‘liqda uning ketma-ketligi va davomiyligi haqida tushunchaga ega; Vatanimiz va jahonda yuz bergen voqealarni vaqt nuqtai nazaridan taqqoslary oladi; tarixiy voqeа sodir bolgan joyning nomi, voqeani mazkur hududda sodir bolishi sabablarini izohlaydi; voqeaning sodir boiish sabablari, voqeada ishtirok etgan shaxslar haqida ma’lumotga ega; voqeaning ahamiyatini baholay oladi; quyi - o‘quvchi tarixiy voqeа sodir bo‘lgan vaqt haqida tushunchaga ega; tarixiy voqeа sodir bo‘lgan joyning nomini biladi; voqeada ishtirok etgan shaxslar haqida ma’lumotga ega, biroq voqelikning yuzaga kelish sabablari va uning ahmiyatini tushuntirib berishda qiynaladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytsak hozirgi kunda pedagogikadagi muammolar eng muhim va dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Aynan shu muammolar va ularning yechimlari hozirgi davrda ham tadqiq qilinmoqda. Ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish. unga asosianib yangi pedagogik hodisa va qonuniyatlarni ochish o‘quv-tarbiya jarayoniga yaxshi sifatli o‘zgarish]ar kiritadi, o‘quvchilarining bilish faoliyatini boshqarish, yangi turdagи o‘quv jarayonini modellashtirish muammolarini yechishga sabab bo‘ladi. Pedagogik tajriba o‘qituvchining o‘quv ishlari jarayonida egallaydigan bilim, ko‘nikma va malakalari yig‘indisidir. Pedagogik tajribani to‘plash pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, u pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish omili hisoblanadi. Pedagogik tajribani to‘plash tizimi quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 2. February 2024

topadi:

1. Maqsadni belgilash.
2. Muammolarni to‘plash.
3. Muammolarni tahlil etish, umumlashtirish, xulosa qilish.
4. Yutuqlarni aniqlash va amaliy faoliyatga tatbiq etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” //Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: “Sharq” nashriyot matbaa-konserni. 1997-yil.
- 2.Mavlonova R., Vohidova N., Rahmonqulova I., Pedagogika nazariyasi va tarixi (derslik) –T; “Fan va texnologiya” nashriyoti 2010-yil.
3. B. Xodjayev, A. Choriyev, Z. Saliyeva Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi (derslik).2018
4. Kayumova M., Xakimova M., To‘rabekov F. Ta’lim va o‘rganish nazariyasi //Архив научных исследований. – 2022. – T.
5. Kayumova, Mekhribonu, Muhabbat Xakimova, and Farxod To‘rabekov. "Ta’lim va o‘rganish nazariyasi." Архив научных исследований 2.1 4. Kayumova, M., Xakimova, M., & To‘rabekov, F. (2022).

**Research Science and
Innovation House**